USTOZ SAN'ATKOR YUNUSQORI YUSUPOVNING HAYOTI VA IJODIY YO'LI

Maxammadaliyeva Dilnavoz
Jalilov Abdukaxxor
Respublika musiqa va san'at kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yunusqori Yusupovning hayoti va ijodiy yo'li haqida bayon etilgan.

Musiqiy merosimiz nihoyatda boydir. U qanchalik chuqur va atroflicha o'rganilar ekan,yangidan-yangi qirralari ochilaveradi va uning rivojiga o'zlarining hissalarini qo'shgan ijodkorlarning nomlari «kashf» etilaveradi.

Shunday iste'dodli san'atkorlar orasida Andijon ijrochilik maktabining yorqin namoyandasi, o'zining qisqagina hayoti davomida o'zbek milliy musiqa san'ati rivojiga barakali hissa qo'shib, tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan betakror g'ijjakchi, yoqimli ovoz sohibi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Yunusqori Yusupov ham bor edi. O'z davrining mashhur sozandasi va xonandasi bo'lgan ushbu ijodkor kamon tortganda va kuylaganda davralar sel bo'lar edi. Chalgan sozida sehr, xonishlarida yuraklarni zabt eta oluvchi go'zallik bor edi.

Yunusqori Yusupov 1934-yilda Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Ovushqa qishlog'ida, oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. Bolalik chog'larining aksariyat qismi urush davriga to'g'ri keladi. Yunusning ko'zi bolaligida qizamiq kasalidan so'ng ojiz bo'lib qolgan edi. Ismiga «qori» so'zining qo'shib aytilishi ham shundan. U ojiz bo'lishiga qaramay, zehnining o'tkirligi, musiqiy iste'dodining yuksak darajada ekanligi bilan kishini o'ziga tezda jalb etar edi. Uning iqtidorini ko'rgan otasi yosh Yunusqoriga mandalina cholg'usini sotib olib beradi. Boshlang'ich ko'nikmalarni shu cholg'uda o'zlashtira boshlaydi. Ammo, Yunusqoriga bir murabbiy zarur edi. Uning bolalik yillarida bo'lib o'tgan bir qancha voqealar, uni san'atning cheksiz ummoniga yetakladi. Xususan, Yunusqorining oilasi istiqomat qiladigan uyning yon tevaragida paxtachilik kolxozining markaziy binosi joylashgan edi. Bu yerda o'zi san'atkor bo'lmasada, san'atni sevadigan Ismoilxon ismli chin shinavanda inson raislik vazifasini o'tar edi. U yosh Yunusqorini ushbu binoga chaqirib olar va to'planganlar oldida qo'shiq hirgoyi qilishini va qo'lidagi mandalina cholg'usida kuylar ijro etibberishini so'rar edi. Bolakayning kundalik ko'ngil ochar hirgoyi va oddiy kuylarni chapani tarzda ijro etishlaridan rais Ismoilxon bu bolada noyob iste'dod bor va Yunusqori haqiqiy san'atkor bo'lib yetishadi degan xulosaga keladi. Shundan so'ng rais bir sozanda tanishidan nay cholg'usini olib, Yunusqoriga tuhfa etadi. Shu kundan boshlab Yunusqori nay chalishni, bu asosida esa milliy musiqamiz bilan chuqurroq tanishishni boshlaydi. Shu alfozda rais Ismoilxon «kuzatuvi» ostida oradan bir yil o'tadi va Yunusqori nay cholg'usini ancha-muncha o'zlashtirib oladi. Mazkur ilk qadamlar davri va unga asosiy sababchi Ismoilxon rais bo'lganligini inobatda olgan holda, Yunusqorining birinchi ustozini Ismoilxon rais deb hisoblash mumkin. Chunki, Yunusqorining san'atdagi keyingi pog'onaga ko'tarilishida ham aynan Ismoilxon raisning ta'siri katta.

Yunusqorining nayni o'zlashtirib olganligini va san'atga bo'lgan mehri, shuningdek juda tirishqoqligini ko'rgan rais, o'z qo'li ostida ishlaydigan hisobchi Ma'murjon akaga, «qaerdan bo'lsa ham Yunusqoriga g'ijjak topib keling», deb aytadi. Ko'p o'tmay Yunusqori g'ijjak cholg'usiga ham ega bo'ladi va bundan boshi ko'kka yetadi. Endi, g'ijjak sozini o'rganish borasida Ismoilxon rais ham, Yunusqorining o'zi ham haqiqiy bir ustoz zarurligini bilar edilar. Shunday qilib, g'ijjak cholg'usi bo'yicha ilk saboqlarni Paxtaobodlik san'atkor Abdumalikxon Yunusovdan ola boshlaydi.

Yunusqori undan g‘ijjakning sozlanishi, ijro etish mezonlari va umuman professional ijrochilik jabhasi bo‘yicha ko‘pgina bilimlar olishga muyassar bo‘ladi. Yunusqori kun bo‘yi cholg‘u chalish, ustozidan olgan bilimlarni mustahkamlash bilan mashg‘ul bo‘lar edi. Shuningdek, yoshligidan qo‘shiq hirgoyi qilib yurish odatini tashlamagan Yunusqori, hofizlik san’atini egallashni ham rejalashtirib yurar va mustaqil ravishda o‘z ustida ishlar edi. Tez orada yosh Yunusqori o‘zining

go‘zal ijrosi bilan Paxtaobodlik ustoz san’atkorlar: Usta Hojimat tanburchi, Ergash g‘ijjakchi, Orifjon Qodirov, Abdukarim Rasulov, Toshxo‘ja Maxsum, Shavkatjon Yusupov hamda Qodir Oxunlarning nazariga tushadi va ulardan ham ashula va cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha saboqlar ola boshlaydi.

Yunusqoriga yorug‘ dunyoni ko‘rish baxti in’om etilmagan bo‘lsa-da, u hayot go‘zalliklari, insonlarning hayotga bo‘lgan munosabatlarini qalbi bilan ko‘ra olardi va jamiyat uchun kerakli inson bo‘lib yetishish uchun tinmay harakat qilar edi. U o‘zining o‘smirlik davrini ustozlari yo‘lini o‘rganish, ularning san’atlarini ziyrak nigoh ila kuzatish va tobora professional ijrochilik sirlarini egallab borish harakati bilan o‘tkazdi. Bu izlanishlar samarasi o‘laroq, u o‘zining qobiliyatini shakllantira oldi va tinimsiz mehnatlari tufayli ustozlarining ishonchini oqlay oldi. Shu zaylda el ichida ham Yunusqori degan nom tanila bordi. Asta-sekin radiodan u ijro etgan qo‘shiqlar ham yangray boshladi. Bu haqida keyinroq alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Uning qisqagina sermazmun ijodiy faoliyati ijrochilikning turli jabhalariga asoslangan holda o‘tdi. Xalqimiz ham Yunusqori Yusupov ijro etgan asarlarni jon dili bilan tinglar va qalban zavq olar edilar. Davlat tomonidan Yu.Yusupovning milliy musiqamiz rivoji yo‘lidagi samarali mehnatlari munosib taqdirlanib «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» unvoni berildi.

Yu.Yusupov 1987-yil ayni san’ati kamolotga yetgan vaqti 53 yoshida dunyodan o‘tdi. U milliy musiqa san’atimizning rivojlanishi uchun o‘zining go’zal ijrochilik uslubini, rang-barang ijod namunalarini, munosib izdoshlari va yaxshi farzandlarini yodgorlik sifatida qoldirdi. Yu.Yusupovning farzandlaridan tashkil topgan oilaviy ansambl bir qator ko‘rik tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritib 1998-yilda Oilaviy ansambllar ko‘rik tanlovining Respublika bosqichida faxrli II o‘rinni egalladi.

G’ijjak cholg‘usi Yu.Yusupovning bir umrlik hamrohi edi. Milliy cholg‘u hisoblangan g‘ijjakda u shunday ijro etar ediki, uning nolalaridan insonning qalb tubida yotgan yashirin histuyg‘ular jumbushga kelar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar N.Qodirov Toshkent 2016